

## **TALABALIK DAVRIDA O'ZINI O'ZI RIVOJLANTIRISHGA O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHNING TA'SIRI**

*Oskinbayeva Gulziyba Davletbayevna,  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya. Maqolada talabalik davrida o'zini o'zi rivojlantirishga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Ayniqsa, o'zini o'zi faollashtirish borasidagi olimlarning nazariy yondashuvlarini tahliliga bag'ishlanadi. Shuningdek, o'zini o'zi rivojlantirishga o'z-o'zini faollashtirishning ta'siri masalasi empirik tadqiqotlar asosida tekshirilgan.*

*Kalit so'zlar: shaxs, o'zini o'zi rivojlanish, o'zini o'zi faollashtirish, o'zini o'zi namoyon qilish, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish, iste'dod, qobiliyat, qadriyat, qiziqish, vaqt bo'yicha yo'nalish, inson tabiatiga qarash, bilish zarurati, kreativlik, avtonomiya, tarqoqlik, o'zini o'zi tushunish, autosimpatiya, kontakt, aloqa sohasidagi moslashuvchanlik.*

## **ВЛИЯНИЕ САМОАКТУАЛИЗАЦИЯ НА САМОРАЗВИТИЕ В ПЕРИОД СТУДЕНЧЕСТВА**

*Oskinbaeva Gulziyba Davletbaevna,  
независимый научный сотрудник Каракалпакского государственного университета*

*Аннотация. Статья посвящена изучению влияния самоотношения на саморазвитие в студенческий период. В частности, оно посвящено анализу теоретических подходов учёных в области самоактивации. Также на основе эмпирических исследований рассмотрен вопрос о влиянии самоактивации на саморазвитие.*

*Ключевые слова: личность, саморазвитие, самоактивация, самовыражение, самореализация, талант, способности, ценность, интерес, ориентация во времени, взгляд на человеческую природу, потребность в познании, творчество, автономия, рассеянность, самопонимание, аутосимпатия, контактность, гибкость в общении.*

## **THE EFFECT OF SELF-ACTIVITY ON SELF-DEVELOPMENT DURING STUDENT PERIOD**

*Oskinbaeva Gulziyba Davletbaevna,  
Independent researcher of Karakalpak State University named after Berdak*

*Abstract. The article focuses on the study of the influence of self-attitude on self-development during the student period. In particular, it is devoted to the analysis of the theoretical approaches of scientists in the field of self-activation. Also, the question of the effect of self-activation on self-development was examined on the basis of empirical studies.*

*Key words: personality, self-development, self-activation, self-expression, self-actualization, talent, ability, value, interest, time orientation, view of human nature, need to know, creativity, autonomy, dispersion, self understanding, autosympathy, contact, flexibility in communication.*

Ma'lumki, "O'zini o'zi faollashtirish" atamasi ilk bor ilmiy kategoriya sifatida K.Goldshteyn (1939) tomonidan kiritilgan. U o'zining kognitiv reabilitasiya nazariyasiga

asoslanib, pasiyent (bemor) shaxsidagi simptomlarni ko‘rib chiqishni taklif etgan. U miya jarohatlari bilan og‘rigan bemorlar xulqidagi bir qator o‘zgarishlarni “o‘zini o‘zi faollashtirish” va “o‘zini o‘zi namoyon qilish” tushunchalari bilan tushuntirgan. K.Goldshteynga ko‘ra, “o‘zini o‘zi faollashtirish tananing jarohat ta’siri ostida qayta qurishga qobilligini ifodalaydi” [1]. Uning ta’kidlashicha, o‘zini o‘zi faollashtirish tananing yagona va asosiy motivi bo‘lib, butun organizm o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishi, rivojlanishi, o‘z-o‘zini kamol toptirishi, shaxsning ijodiy intilishi uchun yetakchi xususiyati sifatida xizmat qiladi.

“O‘zini o‘zi faollashtirish” tushunchasi insonda qaror topishi lozim bo‘lgan qandaydir “o‘zlik” mavjudligini nazarda tutadi. A.Maslou fikricha, o‘zlik inson hayoti mazmunini tashkil etuvchi shaxsiy mohiyat va qadriyatlar bilan ifodalanadi. Ko‘pincha shunday bo‘ladiki, shaxsning mohiyati va qadriyatlari turmushning u yoki bu tashqi ijtimoiy baholari bilan to‘siladi. Kelgusida kishi tomonidan assimilyasiyalanuvchi o‘zgaralar bahosi uning shaxsiy fikriga soya soladi va uni o‘zini o‘zi faollashtirish yo‘lidan chetga ulotiradi. Shu sababli o‘zini o‘zi faollashtirishga eng birinchi qadam insonning o‘zgaralarga emas, balki o‘z bahosi va fikrlariga ishonishga, “o‘z o‘zligining ichki ovozigga quloq tutish”ga qobilligi hisoblanadi [2].

A.Maslou bo‘yicha, o‘zini o‘zi faollashtirish – bu insonning o‘zi xohlagan va bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsga aylanishi. O‘zini o‘zi faollashtirish – bu shaxsning iste’dod va qobiliyatlarini to‘laligicha namoyon etish; bu shaxsning yashirin ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishidir. Ta’kidlash joizki, shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirishi uning ijtimoiy va shaxsiy tajribalarni o‘zlashtirishi hamda insoniy munosabatlarni samarali qurishi bilan tavsiflanadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning jamiyat, tabiat hamda insonlar olamiga bo‘lgan qiziqishlarini belgilab beradi.

O‘zini o‘zi faollashtirish insonning bildirayotgan fikri va bajarayotgan amali uchun mas’uliyatni nazarda tutadi. A.Maslouning ta’kidlashicha, faoliyatining oqibatlarini uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish o‘zini o‘zi faollashtirishning muhim sharti hisoblanadi. “Har safar mas’uliyatni o‘z zimmasiga olib, inson o‘zini o‘zi namoyon qiladi” [3].

O‘zini o‘zi faollashtirish insonga o‘z nuqtai nazarini aytish va himoya qilishda asqotishi mumkin bo‘lgan jasurlik va mardlik talab etadi. A.Maslou fikricha, o‘zini o‘zi faollashtirishning jiddiy to‘sig‘i “suqulib kirish”, o‘zi loyiq bo‘lmagan narsaga da’vo qiluvchi yoki noshud mo‘jizakor bo‘lib tanilish, boshqalarga nonkonformist bo‘lib ko‘rinishdan qo‘rqishdir. Qolaversa, o‘zini o‘zi faollashtirish o‘zini ifoda etishga nisbatan erkin emasligining mantiqan aloqadorlik yo‘qligi bilan taqazolanadi.

A.Maslouning ta’kidlashicha, o‘zini o‘zi faollashtirishni anglangan xatti-harakatlar maqsadiga o‘zgartirish mumkin emas. Shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirishga intilishi qancha yuqori bo‘lsa, u oliy kechinmalarga qanchalik kuchli intilsa, bu holatlar shunchalik qat’iyat bilan undan qochadi. O‘zini o‘zi faollashtirishning siri shundaki, kishi o‘zida mavjud bo‘lgan g‘ayratini sevimli ishiga bag‘ishlasa, ko‘ngilli bajarilgan ishdan g‘ururlanish o‘zini o‘zi faollashtirishning lahzali holatiga aylanadi.

O‘zini o‘zi faollashtirish insonning uzun umri davomidagi tanlovlarning har bir yechimi to‘g‘riligi bilan ta’minlanadi. Har bir hayotiy tanlov insonni shaxsiy o‘sishi yoki qulashi tomon bir qadamga ilgari suradi.

O‘zini o‘zi faollashtirish – bu o‘z rivojlanishi doirasidagi yo‘nalishda harakat qiluvchi inson hayotiy tanlovlarining o‘svuchi natijalaridir. “O‘zini o‘zi faollashtirish – bu jarayon, u shuni nazarda tutadiki, har safar, tanlov qilayotganda, biz halol bo‘lib qolishga, yolg‘on gapirmaslikka nima munosibroq, o‘g‘irlikdan ko‘ra o‘g‘irlamaslik halolroq ekanligini tanlaymiz, yoki umumlashtirib, - qarshimizda turgan har bir tanlovni biz shaxsiy o‘shimiz foydasiga amalga oshiramiz” [2].

Ma'lumki, talabalik davrida o'zini o'zi rivojlantirishning namoyon bo'lishiga o'zini o'zi faollashtirishning ta'sirini o'rganish maqsadida sinaluvchilar guruhida T.A.Ratanova, N.F.Shlyaxtaning "O'zini o'zi rivojlantirishga tayyorgarlik", V.I.Zvereva, N.V.Nemovlarning "Pedagogning rivojlanishga tayyorgarlik darajasini baholash" va N.F.Kalinaning "Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish" metodikalari o'tkazildi. Mazkur metodika talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirishning vaqtni mo'ljalga olish, qadriyatlar, inson tabiatiga nazar, bilish ehtiyojlari, ijodkorlikka intilish, avtonomlik, spontanlik, o'zini o'zi tushunish, autosimpatiya, aloqa o'rnatish, muloqotdagi egiluvchanlik va o'zini o'zi rivojlantirish hamda kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish kabilar o'rtasidagi o'zaro munosabat xususiyatlarini tekshirishga mo'ljallangan. Tanlab olingan metodikalar sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, to'plangan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

Talabalik davrida o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi faollashtirish o'rtasidagi aloqadorlik (umumiy kursatkich bo'yicha)

| O'zini o'zi faollashtirishning tarkibiy qismlari | O'zini o'zi rivojlantirish | Kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish |
|--|----------------------------|-----------------------------------|
| Vaqt bo'yicha yo'nalish                          | 0,06                       | -0,01                             |
| Qadriyatlar                                      | -0,21*                     | 0,18*                             |
| Inson tabiatiga qarash                           | -0,14                      | 0,25**                            |
| Bilish zarurati                                  | -0,07                      | 0,14                              |
| Kreativlik (ijodkorlikka intilish)               | 0,03                       | 0,17                              |
| Avtonomiya                                       | 0,03                       | 0,18                              |
| Tarqoqlik  | -0,02                      | 0,16                              |
| O'zini o'zi tushunish                            | -0,05                      | 0,22*                             |
| Autosimpatiya                                    | 0,07                       | 0,12                              |
| Kontakt  | 0,03                       | 0,08                              |
| Aloqa sohasidagi moslashuvchanlik                | 0,13                       | 0,07                              |

Jadval natijalariga ko'ra, sinaluvchilar guruhida qadriyatlar yo'nalganligi o'zini o'zi rivojlantirish bilan ( $r=-0,21$ ;  $p\leq 0,05$ ) qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi qaydetildi. Shuning bilan birga qadriyatlar yo'nalganligi va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish bilan ( $r=0,18$ ;  $p\leq 0,05$ ) ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi kuzatiladi. Ta'kidlash lozimki, kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shuning bilan birga o'zini o'zi rivojlantirish qadriyatlar tizimiga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Natijalardan ma'lumki, shaxsning qadriyatlarini anglash, insonlar bilan uyg'un bo'lish va sog'lom munosabatlarga asoslangan qadriyatlarga intilish jarayoniga ijodiy qobiliyatlar, mustaqil fikr yurita olish, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, bilishga bo'lgan intilish, o'ziga ijobiy emosional munosabat kabi xususiyatlar sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Metodika natijalariga ko'ra, inson tabiatga qarash kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish bilan ( $r=0,25$ ;  $p\leq 0,01$ ) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ma'lumki, inson tabiatga qarashi kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, insonlardagi shaxslararo munosabatlarda o'zgalarga nisbatan xayrixohlik va ishonch hislarining namoyon bo'lishida shaxs o'zini o'zi tushuna olishi, ayni paytdagi hissiyotlari bilan yashashi, boshqalar bilan kuchli va ijobiy munosabatlarni o'rnatish qobiliyati, muloqotda yetarli darajada o'z fikrini ifodalash layoqati kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zini o'zi tushunish va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish bilan ( $r=0,22$ ;  $p\leq 0,05$ ) ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi kuzatiladi. Bundan ko'rinadiki, talabalik davrida o'zini o'zi tushunishni tarkib topishi kasbiy o'zini o'zi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tadqiqot natijalaridan aniqlandi. Ma'lumki, inson o'zini o'zi qanchalik tushunib yetsa, ularda kelajak rejalarini maqsadga muvofiq tarzda rejalashtirish hamda tanlagan kasbining o'zi uchun qanchalik kerakligini ongli ravishda qabul qilishi ustuvor ahamiyatga ega ekanligi kuzatiladi.

O'tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalik davrida refleksiv jarayonlar va o'zini o'zi rivojlantirish o'rtasida ahamiyatli aloqadorlik qayd qilinadi. Unga ko'ra, talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirish hamda o'zini o'zi rivojlantirish, kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish bilan ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi kuzatildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalik davrida refleksivlik va o'zini o'zi rivojlantirish va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish o'rtasida differensial aloqadorlik mavjudligi kuzatiladi. Shunga muvofiq quyidagi xulosalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ldi:

- talabalik davrida o'zini o'zi rivojlantirish refleksivlik xususiyati bilan bog'liq bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi qayd etildi;

- kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish va talabalik davrida refleksivlik xususiyatlari o'rtasida differensial yondashuv kuzatiladi;

- talabalik davrida kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi, muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish o'rtasida qarama-qarshi ahamiyatli munosabat kuzatilib, bir hodisaning ortishi ikkinchi bir hodisaning rivojlanmasligiga olib kelishi empirik ma'lumotlar asosida dalillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность /А.Н.Леонтьев М.: Академия, 2004. С. 12

2.Маслоу А. Мотивация и личность/ Маслоу А.СПб.:Евроазия, 2001-475с

3.Маслоу Абрахам Г. Дальние пределы человеческой психики. /. – Перев. с англ. А. М. Татлыдаевой; Науч. ред., вступ. статья и коммент. Н. Н. Акулиной. – СПб.: Издат. группа «Евразия». – 1997. – 430 с.